

BADIIY TARJIMADA MILLIY RUHNI SAQLASH MUAMMOLARI VA TAMOYILLARI

Imomaliyeva Musharrafxon,

Qo‘qon universiteti filologiya kafedrası dotsenti v.b (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tarjimaning eng qiziqarli va murakkab masalalaridan biri — asardagi milliy ruh va milliy koloritni boshqa tilga o‘girish muammolari o‘rganiladi. Bugungi globallashuv zamonida tarjima shunchaki so‘zlarni almashtirish emas, balki ikki xalq madaniyatini o‘zaro tanishtirish vositasidir. Har bir millatning turmush tarzi, fe‘l-atvori va dunyoqarashi uning adabiyotida aks etadi. Shuning uchun badiiy asarni tarjima qilayotganda undagi milliy muhitni saqlab qolish juda muhim, aks holda asar o‘zining jozibasini yo‘qotib, oddiy matnga aylanib qoladi. Maqolada milliy ruhni shakllantiruvchi asosiy vositalar — realiyalar (taomlar, kiyimlar, urf-odatlar) va xalq iboralari tarjimasidagi muammolar tahlil qilingan. Masalan, o‘zbek adabiyotidagi "kelin salom" yoki "beshik to‘yi" kabi so‘zlarni chet tilga shunchaki silliqlab o‘girish o‘zbek madaniyati jozibasini yo‘qotadi. Maqolada bunday so‘zlarni transliteratsiya qilish (asl holicha qoldirish) va matn ostida izoh berish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligi misollar bilan ko‘rsatilgan. Shuningdek, xalq iboralarini so‘zma-so‘z tarjima qilish g‘alizlikka olib kelishi va ularga mos muqobillar topish lozimligi ta‘kidlangan. Xulosa qilib aytganda, tarjimon matnni tushunarsiz milliy so‘zlar bilan to‘ldirib ham yubormasligi, shu bilan birga, asarni haddan tashqari silliqlab yubormasligi, ya‘ni "me‘yor"ni saqlashi shart. Maqoladan filologiya yo‘nalishi talabalari va tarjima bilan shug‘ullanuvchilar amaliy qo‘llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: Badiiy tarjima, milliy ruh, milliy kolorit, iboralar tarjimasi, adekvatlik, matn osti izohi, tarjimon mahorati.

Аннотация. В данной статье рассматривается одна из наиболее интересных и сложных проблем художественного перевода — передача национального духа и национального колорита произведения на другой язык. В условиях современной глобализации перевод представляет собой не просто замену слов, а важное средство взаимного знакомства культур разных народов. Образ жизни, характер и мировоззрение каждого народа находят своё отражение в его литературе. Поэтому при переводе художественного произведения крайне важно сохранить национальную атмосферу текста, иначе произведение утрачивает свою художественную привлекательность и превращается в обычный текст.

В статье анализируются основные средства формирования национального духа — реалии (национальные блюда, одежда, обычаи и традиции) и народные выражения, а также трудности их перевода. Например, буквальный перевод таких узбекских культурно значимых понятий, как «kelin salom» и «beshik to‘yi», на иностранный язык приводит к утрате своеобразия и культурной ценности узбекской традиции. На конкретных примерах показано, что наиболее эффективным способом передачи подобных реалий является их транслитерация с последующим пояснением в примечаниях. Кроме того, подчёркивается, что дословный перевод народных фразеологизмов может привести к стилистической неестественности текста, поэтому необходимо подбирать адекватные эквиваленты в языке перевода.

В заключение отмечается, что переводчик не должен перегружать текст непонятными национальными словами, но и не должен чрезмерно сглаживать его культурные особенности; важно соблюдать разумный баланс и меру. Статья может служить практическим пособием для студентов филологических специальностей и специалистов, занимающихся переводческой деятельностью.

Ключевые слова: художественный перевод, национальный дух, национальный колорит, перевод фразеологизмов, адекватность, подстрочное примечание, переводческое мастерство.

Annotation. This article examines one of the most interesting and complex issues of literary translation - the problems of translating the national spirit and nationality in a work into another

language. In today's era of globalization, translation is not just a matter of exchanging words, but a means of introducing the cultures of two peoples to each other. The lifestyle, character and worldview of each nation are reflected in its literature. Therefore, when translating a work of art, it is very important to preserve the national atmosphere in it, otherwise the work will lose its charm and turn into a simple text. The article analyzes the problems of translating the main means of shaping the national spirit - food, clothing, customs and folk expressions. For example, simply translating words such as "kelin salom" or "beshik toyi" in Uzbek literature into a foreign language will lose the charm of Uzbek culture. The article shows with examples that the most correct way is to leave such words in their original form and provide explanations under the text. It is also emphasized that translating folk expressions word for word leads to confusion and it is necessary to find suitable alternatives for them. In conclusion, the translator must not fill the text with incomprehensible national words, but at the same time not overly smooth the work, that is, maintain the "norm". The article discusses these ideas.

Keywords: Literary translation, national spirit, national color, translation of phrases, decency, subtextual commentary, skills of translator.

Kirish. Badiiy adabiyot — har bir millatning ma'naviy dunyosi, tarixiy tajribasi, mentaliteti va ichki kechinmalarini o'zida jamlagan eng yorqin va mukammal ko'zgudir. Insoniyat yaralibdiki, o'zaro muloqotga, bir-birining turmush tarzini, madaniyatini va dunyoqarashini o'rganishga doimiy ravishda ehtiyoj sezib kelgan. Dunyo xalqlarini bir-biriga yaqinlashtiradigan, ularning qalbi va tafakkurini yagona nuqtada uchrashtiradigan eng qudratli ma'naviy vosita esa, shubhasiz, badiiy tarjimadir. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlangan va madaniyat aloqalari mislsiz darajada jadallashgan davrda tarjimachilik fani oldida mutloq yangicha talablar va dolzarb vazifalar ko'ndalang bo'lmoqda. Endilikda badiiy tarjima shunchaki bir tildagi manbani ikkinchi tilga o'girish yoki shunchaki lug'aviy konvertatsiya qilish jarayoni hisoblanmaydi. U — ikki xil sivilizatsiyaning, ikki xil dunyoqarashning va turlicha ijtimoiy muhitning o'zaro muloqot maydonidir. Badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonida tarjimon juda ko'plab uslubiy va madaniy to'siqlarga duch keladi. Bu to'siqlar ichida eng murakkabi va nozigi, shubhasiz, asardagi milliy ruhni (milliy koloritni) saqlab qolish muammosidir. Milliy o'ziga xoslik — badiiy asarning joni va qonidir. Agar tarjima jarayonida mana shu milliylik e'tiborsiz qoldirilsa yoki xorijiy kitobxonga tushunarli bo'lsin degan bahona bilan juda mahalliyashtirib yuborilsa, asar o'zining tiriklik jozibasini, estetik qiymatini butkul yo'qotadi va quruq axborot matniga aylanib qoladi. Shuning uchun ham badiiy tarjimada milliy ruhni adekvat (asliga mos) saqlash masalasi hamon ilmiy jihatdan to'liq yechimini topmagan va doimiy tadqiqotlarni talab qiladigan eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Har bir xalq atrof-muhitni, ijtimoiy hayotni va insoniy munosabatlarni o'z tilining ichki qonuniyatlari orqali ko'radi va idrok etadi.

Tadqiqotning maqsadi badiiy asarlardagi milliy koloritni tarjimada qayta yaratishning samarali usullarini aniqlash va ularning ilmiy asoslarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: – milliy ruh va milliy kolorit tushunchalarini aniqlashtirish; – realiyalar tarjimasidagi muammolarni tahlil qilish; – frazeologik birliklar tarjimasidagi muqobillik masalalarini o'rganish; – tarjimada adekvatlikni ta'minlovchi usullarni belgilash.

Tadqiqot metodlari va adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlari va ilmiy markazlar uchun yaratilgan zamonaviy darsliklarda, xususan, Q. Yo‘ldoshev va S. Ahmedovlarning ilmiy-metodik maqolalarida badiiy adabiyot orqali milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish masalalari keng yoritilmoqda [9]. Ularning fikricha, asarlardagi milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyalari boshqa tillarga tarjima qilinganda ham o‘zining birlamchi qiymatini yo‘qotmasligi kerak. Buning uchun esa tarjimashunoslikning eng zamonaviy lingvokulturologik, kognitiv va matn tilshunosligi metodlaridan unumli foydalanish lozimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu metodlar tilni jamiyat va madaniyat bilan birgalikda o‘rganish imkonini beradi. Maqolada quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlariga tayanildi:

1. Qiyosiy-tipologik tahlil metodi: Ushbu metod yordamida original (o‘zbek tilidagi) matn va uning xorijiy tillardagi (ingliz va rus tillari) tarjima variantlari o‘zaro solishtirildi. Har ikki til tizimidagi farqlar, milliy so‘zlar o‘girilganda yuzaga kelgan o‘zgarishlar ayni shu usul orqali aniqlandi.

2. Lingvokulturologik tahlil metodi: Til va madaniyat o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganuvchi ushbu metod asardagi milliy ruhni shunchaki leksik birlik sifatida emas, balki o‘zbek xalqining asriy tafakkuri, mentaliteti va turmush tarzi hujjati sifatida baholashga imkon berdi.

3. Komponent tahlil metodi: Realialar va milliy bo‘yoqli so‘zlarning ichki ma’no qatlamlarini ochishda ushbu usuldan foydalanildi. Bu orqali tarjimada milliy so‘zning qaysi ma’no qismi saqlanib qolgani va qaysi qismi yo‘qotilgani aniqlashtirildi.

4. Pragmatik tahlil metodi: Tarjima matnining xorijiy kitobxonga ko‘rsatadigan estetik va ruhiy ta’sir darajasi, matn osti izohlarining o‘quvchi tomonidan qabul qilinishi ushbu metod yordamida baholandi.

O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan milliy madaniyati sharqona fikrlashi, oilaviy munosabatlari, mehmondo‘stligi va turmush tarzi bizning milliy adabiyotimizda, xususan, klassik va zamonaviy adabiyotimizda juda chiroyli ifodalangan. Masalan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom yoki Abdulla Qahhor asarlarini o‘qigan kitobxon shunchaki voqealarni kuzatmaydi, balki o‘zbekona muhitni to‘liq his eta oladi. Ushbu asarlarni ingliz, rus yoki nemis tillariga o‘girish jarayonida o‘sha milliy koloritni xorijiy kitobxonga yetkazib berish juda katta muammolarni keltirib chiqaradi. Masala shuki, amaliyotda ko‘p hollarda tarjimonlar matndagi milliy elementlarni butkul o‘chirib yuborishadi yoki matnni xorijiy kitobxon tushunmaydigan milliy so‘zlar bilan haddan tashqari to‘ldirib tashlashadi. Har ikki holat ham badiiy tarjimaning qonuniyatlariga ziddir. Tarjimada milliy ruhni saqlashning aniq mezonlarini belgilash bugungi kun o‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligining bosh vazifalaridan biridir. Ushbu maqolaning bosh maqsadi — badiiy tarjima jarayonida asl nusxa matnidagi milliy o‘ziga xoslik, ruh va koloritni tarjima jarayonida qayta yaratishning eng muqobil usullarini aniqlash hamda ularni ilmiy asoslab berishdan iboratdir. Badiiy matndagi "milliy ruh" va

"milliy kolorit" tushunchalarining mohiyatini tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ochib berish, badiiy matnda o'zbekona milliy o'ziga xoslikni ta'minlovchi leksik qatlamni (realiyalarni) aniqlash, ularni tasniflash va tizimga solish, frazeologizmlar, maqollar va xalq matallari tarjimasidagi milliy variantlar va muqobillik muammolarini qayd etish, tarjimada "adekvatlik" va "ekvivalentlik" mezonlarini saqlashda tarjimonlar yo'l qo'yadigan uslubiy xatolarni o'rganish hamda ularning oldini olish bo'yicha fikr yuritish maqsad qilib olindi. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda milliy ruhni saqlash masalasi faqatgina quruq so'zma-so'z muqobil topish yoki mexanik tarjima nuqtayi nazaridan emas, balki kognitiv tilshunoslik va lingvokulturalogiya asosida, ya'ni ikki xalqning tafakkur qilishidagi farqlarni hisobga olgan holda birgalikda o'rganiladi.

Badiiy tarjimada milliy ruh, milliy o'ziga xoslik muammosi bugun paydo bo'lib qolgan mavzu emas. Bu masala uzoq yillardan beri o'zbek va jahon tarjimashunos olimlarining diqqat markazida kelmoqda va jiddiy bahslarga sabab bo'lmoqda. Kirish qismida ta'kidlaganimizdek, tarjima shunchaki bir tildagi so'zlarni avtomatik tarzda ikkinchi tilga o'girish emas, balki ikki xil xalq madaniyatini uchrashtirish vositasidir. Ushbu fikrni ilmiy jihatdan asoslash uchun o'zbek tarjimashunosligi poydevorini qo'ygan va bugungi kunda ham ushbu sohada izlanishlar olib borayotgan olimlarning asarlarini chuqur tahlil qilib chiqishimiz lozim.

O'zbek tarjimashunoslik maktabining asoschisi, atoqli olim G'aybulla Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari", "Til va tarjima", "Tarjimon mahorati" hamda "Do'stlik ko'priklari" kabi tadqiqotlari bizning ishimiz uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.[1] Olim o'z ishlarida badiiy tarjimaning madaniy til jihatlariga juda katta e'tibor qaratgan va tarjimani "xalqlararo ma'naviy ko'priklari" deb baholagan. G'. Salomov tadqiqotlarida asardagi milliy bo'yoqlarni, xalqning o'ziga xos dunyoqarashini saqlash tarjimonning kitobxon oldidagi eng birinchi burchi ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Olimning fikricha, agar tarjimon original matndagi milliy elementlarni to'g'ri bera olmasa, millatning asriy ruhiyati xorijiy kitobxonga yetib bormaydi va asar o'ladi. G'aybulla Salomov tarjimonni ikki madaniyat o'rtasidagi elchi deb ataydi va uning zimmasiga ulkan ijtimoiy-madaniy mas'uliyat yuklaydi. U o'zbek milliy tafakkurini xorijga taqdim etishda tarjimonning dunyoqarashi keng bo'lishi shartligini qat'iy qoida qilib qo'yadi. Salomov o'z asarlarida milliy koloritni saqlashning uchta yo'lini ko'rsatadi: realiyani aynan o'z holicha qoldirib izoh berish, unga muqobil topish yoki kontekstual ma'nosini ochish. Olimning ushbu nazariyasi bugungi kunda ham o'zbek tarjimashunosligining asosi hisoblanadi.

Taniqli olim, professor Qudrat Musayevning nazariy tadqiqotlari badiiy matndagi milliy koloritni tushunishimizda beqiyos manba bo'ldi. Olim o'zining "Tarjima nazariyasi asoslari" darsligida tarjimada adekvatlikka (ya'ni asliga har tomonlama moslikka) erishish shartlarini mukammal ochib bergan [2]. Q. Musayevning tahlillari shuni ko'rsatadiki, so'zlarni faqat lug'aviy ma'nosini bilish tarjimon uchun yetarli emas, balki ularning ortida

turgan milliy-madaniy kontekstni ham chuqur his qilish shart. Olim o'zbekona realiyalarni xorijiy tillarga o'g'irishda yuzaga keladigan to'siqlarni tahlil qilib, tarjimon har ikki xalqning ham kelib chiqishi va maishiy turmush tarzini mukammal bilishi kerakligini isbotlab beradi. Ayniqsa, u o'zbekona qarindoshlik munosabatlari, unvonlar va milliy mehmondo'stlikka oid terminlarning tarjimada noto'g'ri berilishi asar mohiyatini butunlay buzib ko'rsatishini alohida ta'kidlaydi. Musayev leksik birliklarni qiyosiy tahlil qilish orqali milliy ruhni saqlashning grammatik va semantik chegaralarini belgilab bergan.

Mavzuni yanada kengroq anglashda adabiyotshunos olim I. Yo'ldoshevning "Badiiy tarjima va milliy kolorit" deb nomlangan maxsus tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi [3]. Olimlarning tahlillariga ko'ra, milliy kolorit tushunchasini faqatgina alohida ajratib olingan so'zlar doirasida o'rganish noto'g'ridir. I. Yo'ldoshev milliy ruhni butun matnning tabiati, qahramonlar nutqi va muallifning individual uslubi doirasida ko'rib chiqishni taklif etadi. Mazkur adabiyotlar orqali badiiy matndagi oddiy detallar, kiyim-kechak yoki taom nomlari ham o'sha xalqning dunyoqarashini ko'rsatuvchi muhim omil ekanligi o'rganildi. Bu tadqiqotlar tarjimaga oddiy jarayon sifatida emas, balki butun bir xalqning madaniy hujjati sifatida qarash lozimligini ko'rsatadi. Yo'ldoshev o'z ishlarida milliy ruhni saqlashda "ortiqcha milliylashtirish" (ya'ni o'zbekona so'zni ingliz tiliga tarjima qilganda mutloq inglizcha tushunchaga almashtirib yuborish) yoki aksincha, matnni xorijiy kitobxon mutloq tushunmaydigan tushunchalar bilan to'ldirib tashlash xavfini misollar bilan tahlil qiladi.

O'zbek tarjimashunosligining yana bir yirik vakili, professor Najmiddin Komilov o'zining "Bu qadimiy san'at" asarida sharqona matnlarni g'arb tillariga va g'arb adabiyotini sharqona iqlimga moslashtirish masalalarini o'rgangan [4]. N. Komilov ayniqsa tasavvufiy tushunchalar, ramzlar va timsollar tarjimasiga alohida to'xtaladi. Olimning fikricha, sharq she'riyati va nasridagi milliy ruh faqat realiyalar bilan cheklanmaydi, u asarning ohangi, ichki falsafasida ham namoyon bo'ladi. Tarjimon asarning ana shu ichki mazmunini ilg'ab ololmas ekan, u yaratgan tarjima qanchalik chiroyli so'zlar bilan bezatilgan bo'lmasin, baribir jonsiz matn bo'lib qolaveradi. Komilov tarjimada "ruhni saqlash" tushunchasini falsafiy mezonlar bilan bog'laydi. U tarjimon ma'naviy jihatdan asar muallifi bilan tenglasha olishi, muallif yashagan davr ruhiyatini o'zida his qila olishi kerakligini uqtiradi.

Jahon tarjimashunosligining taniqli namoyandalari L. Barxudarov va V. Komissarovlarning ilmiy maqolalari va kitoblari. [5]. Ushbu olimlar o'z ishlarida tillararo muqobillik tushunchasini va tilda bir xalqqa xos bo'lib, ikkinchi xalqda uchramaydigan birliklarni tadqiq qilishgan. Ular bunday so'zlarni "realiyalar" deb atashadi. Olimlarning ta'kidlashicha, badiiy matnda realiyalar duch kelganda tarjimondan shunchaki til bilish emas, balki yuksak ijodiy yondashuv va madaniy moslashtirish mahorati talab etiladi. Komissarov matnni kitobxon darajasiga moslash jarayonida milliy ruhni qurbon qilmaslik

chegaralarini belgilab bergan. Ya'ni, xorijiy kitobxonga oson bo'lsin deb, asardagi milliy qiyofani o'chirib tashlash juda katta badiiy xato hisoblanishini ilmiy jihatdan ko'rsatgan.

Atoqli olim Ozod Sharafiddinov o'zining o'zbek adabiyoti va tarjima san'atiga bag'ishlangan maqolalarida tarjimonning estetik mas'uliyati masalasini keskin qilib o'rta tashlagan edi [6]. Ayniqsa, o'zbek nasri namunalarining rus va boshqa xorijiy tillarga qilingan tarjimalarini qiyosiy tahlil qilar ekan, O. Sharafiddinov asardagi milliy harorat va ichki dardni saqlab qolish qanchalik murakkab va mashaqqatli mehnat ekanligini ko'rsatadi. Olimning fikricha, so'zning mas'uliyatini his qiladigan tarjimon matni shunchaki chet elliklarga tushunarli bo'lsin deb silliqib yubormasdan, uning sharqona jozibasini va betakror ohangini ham saqlashi shart. Sharafiddinov o'z tanqidiy maqolalarida tarjimonlikni "ignada quduq qazish"ga o'xshatib, milliy xarakterlarni yaratishda tarjimon ijodiy erkinlikka ega bo'lishi, lekin bu erkinlik original matn muallifining g'oyasiga zarar yetkazmasligi kerakligini ta'kidlagan.

Professor Umarali Normatov esa o'zbek realistik nasri vakillari, jumladan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Abdulla Qahhor asarlarining tili va uslubini o'rganib chiqqan [7]. Professorning fikricha, ushbu adiblar o'z qissalarida o'zbek xalqining ijtimoiy manzarasini va odamlar ruhiyatidagi milliy jihatlarni oddiy va kichik detallar orqali juda hayotiy chiza olishgan. Umarali Normatovning ushbu tahlillari bizga tarjima jarayonida nima uchun aynan kichik detallarga, milliy bo'yoqli so'zlarga jiddiy e'tibor berish kerakligini ilmiy jihatdan tushunishga va asoslashga yordam beradi. Chunki muallif koloritni aynan mana shu kichik maishiy detallarga (masalan, Qodiriydagi "ko'rpacha", "sandali", Qahhor dagi "kichkina odamlar" hayoti detallari) yashirgan bo'ladi va ularni tarjimada yo'qotish butun boshli asar iqlimini buzadi.

Tarjimonlik sohasining amaliy jihatlarini tadqiq qilgan olim Xayrulla Hamidov o'z ishlarida o'zbek xalq maqollari va frazeologizmlarini ingliz tiliga o'girishning til muammolarini o'rgangan [8]. X. Hamidov tahlillariga ko'ra, maqollar milliy tafakkurning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, ularni shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish mutloq salbiy natija beradi. Olim har bir maqol va matalning ortida o'sha xalqning o'tmishi, mifologiyasi va dunyoqarashi yotishini ta'kidlab, tarjimada milliy ruhni saqlash uchun ularning muqobillarini topish tizimini ishlab chiqqan. Uning fikricha, milliy obrazlilikni saqlash uchun ba'zan tilning ichki tizimini ham qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi.

Natijalar. Ushbu izlanishlar shuni isbotlaydiki, milliy o'ziga xoslikni va bo'yoqdorlikni saqlashda tarjima va unga qo'shib beriladigan ilmiy izohlar eng yuqori natijani namoyon etadi. Moddiy madaniyatga oid realiyalar, xususan, kiyim-kechak, milliy taomlar va uy-ro'zg'or buyumlari milliy o'ziga xoslikning eng yorqin tashuvchilari hisoblanib, ularning tarjimasi o'zbekona ruhni ko'rsatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalarini kuzatganimizda, o'zbek xalqining maishiy turmush tarzi ifodasi bo'lgan "ko'rpacha" so'zi ba'zi o'rinlarda shunchaki mattress, cushion yoki blanket deb o'girilganiga guvoh

bo‘lamiz. Biroq bu inglizcha so‘zlar o‘zbekona mehmondo‘stlik falsafasini va xonadon ichki iqlimini zarracha ham aks ettira olmaydi, chunki g‘arb kitobxonni ko‘z oldida erga to‘shaladigan chiroyli, paxtalik milliy buyum emas, balki krovat ustiga qo‘yiladigan oddiy matras yoki divan yostig‘i gavdalanadi. Tarjimada ushbu so‘zning ko‘rpacha shaklida fonetik jihatdan asliga mos saqlanib, kitobxon uchun maxsus izohlarda erga to‘shaladigan milliy ko‘rpacha ekanligi ta‘riflanishi asardagi sharqona muhitni saqlab qolishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘lidir. Xuddi shuningdek, o‘zbek xalqining an‘anaviy qishki isitish vositasi bo‘lgan "sandal" so‘zi tarjimalarda eng ko‘p mantiqiy zarar ko‘rgan birliklardan biri bo‘lib, ba‘zi ruscha tarjimalarda u xorijiy o‘quvchiga oson bo‘lsin deb pechka, inglizcha variantlarda esa fireplace deb berilgan. Bu holat tarjimashunoslikda domestikatsiya, ya‘ni matnni begona madaniyatga majburlab moslashtirish deb ataladi va u milliy ruhga juda katta zarar yetkazadi. Chunki kamin yoki pechka g‘arbiy Yevropa va rus madaniyatida butun boshli devoriy yoki g‘ishtli mo‘rini, olov yonib turgan joyni vizual ko‘rinishda anglatadi va o‘zbekning o‘rtasiga cho‘g‘ solingan, ustiga ko‘rpa tashlangan pastakkina yog‘och sandal atrofida oila a‘zolarining jamuljam bo‘lib o‘tirishi manzarasi bunday tarjimada butunlay yo‘qqa chiqadi va o‘quvchini asar yozilgan davr hamda xalq ijtimoiy muhitidan uzoqlashtiradi. Bunday xarakterdagi kiyim-kechaklar tahlili ham o‘zbek milliy qiyofasini g‘arbiy matnga ko‘chirishda o‘ziga xos muammolarni tug‘diradi. Oybekning "Navoiy" romani hamda Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida uchraydigan "chopon" va "belbog‘" so‘zlari inglizcha tarjimalarda ko‘pincha robe, coat yoki belt shaklida berilgan. Ammo ingliz tilidagi robe so‘zi g‘arb o‘quvchisida ko‘proq hammomdan keyin kiyiladigan xalatni yoki sudralib yuradigan rasmiy kiyimni, belt esa oddiy charm tasmali kamarni eslatadi.

Vaholanki, o‘zbek milliy muloqot tizimida "belbog‘ bog‘lash" shunchaki kiyim emas, balki mardlik, belni mahkam bog‘lab xizmatga shay turish, yigitlik ramzi hisoblanadi. Shuning uchun bu so‘zlarni chaplan va belbog shaklida o‘z holicha tarjima qilib, matn ostida o‘zbek erkaklarining milliy libosi deb ta‘riflash badiiy adekvatlikni ta‘minlaydi. Shuningdek, o‘zbek xotin-qizlari va keksalar kiyadigan "mahsi" ham g‘arb madaniyatida aynan muqobilga ega emas. Ularni shunchaki leather boots (charm etik) deb tarjima qilish asarning tarixiy va milliy ruhini o‘ldiradi, chunki mahsi oddiy etik emas, balki uy ichida, ko‘pacha ustida kiyiladigan va poklik ramzi bo‘lgan yupqa poyabzaldir. Uy-ro‘zg‘or buyumlaridan hisoblangan va o‘zbek nonvoychilik madaniyatining o‘zagi bo‘lgan "tandir" so‘zini g‘arbiy tillarga clay oven (loyli pech) deb tavsiflash ham so‘zning ichki jozibasini yo‘qotadi va o‘quvchining ko‘z oldida o‘zbekona tandir nonlarining isi va pishish jarayonini gavdalanantira olmaydi. Xalqning urf-odatlarini, marosimlari va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan realiyalar tarjimada yanada murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, Abdulla Qahhor qissalaridagi o‘zbekona marosimlar tili o‘zining qisqaligi va milliyliги bilan ajralib turadi. Masalan, o‘zbek kelinlarining o‘ziga xos hurmat marosimi bo‘lgan "kelin salom" iborasi ingliz tiliga greeting ceremony of the bride, ya‘ni

kelinning salomlashish marosimi deb tavsifiy usulda tarjima qilingan boʻlib, bu usul gʻarb kitobxoniga mantiqan voqeani tushuntirib bersa-da, matndagi estetik, badiiy jozibani butunlay soʻndiradi. Xuddi shuningdek, "oq fotiha" yoki "fotiha toʻyi" birikmasini rus tiliga beloe blagoslovenie yoki ingliz tiliga white blessing yoki engagement party deb oʻgʻirish xorijlik kitobxonda madaniy chalkashlikni keltirib chiqarishi mumkin. Gʻarb tafakkurida bu birikmaning shunchaki rangni emas, balki ota-onaning mutloq roziligi, poklik ramzi ekanligini ifodalamaydi. Yoki oʻzbek xonadonlaridagi "kelin tushdi" marosimini shunchaki arrival of the bride (kelinning kelishi) deb shakily tarzda oʻgʻirish gʻarb oʻquvchisiga bu hodisaning naqadar katta bayram va milliy qadriyat ekanligini yetkazib bera olmaydi. Tarjimon bunday oʻrinlarda maʼnoni ochishi va matn osti izohlar tizimidan mukammal foydalanishi shart.. Tadqiqot jarayonida oʻzbekona mentalitetni ifodalovchi tana aʼzolari bilan bogʻliq iboralar va ularning xorijiy muqobillari oʻrtasidagi tafovutlar oʻrganilganda koʻplab ziddiyatli holatlar aniqlandi. Masalan, "burni koʻtarilmoq" iborasini ingliz tiliga soʻzma-soʻz shaklda his nose rose deb oʻgʻirish kulgili va tarjimonlar uning oʻrniga ingliz tilining oʻz leksik fondidagi to turn up one's nose yoki to be arrogant muqobilini qoʻllash orqali maʼnoni muvaffaqiyatli saqlab qolishgan. Yoki "yuragi chiqmoq" iborasi oʻzbekning ichki psixologik holatini tasvirlaydi va uni ingliz tiliga his heart went out deb kalkalash mutloq xato hisoblanadi, chunki ingliz tilida bu ibora mutloq teskari maʼnoni, yaʼni rahmi kelmoq, gʻamxoʻrlik koʻrsatmoq degan mantiqni anglatadi. Shuning uchun tarjimada unga funksional jihatdan mos keladigan to be frightened out of one's wits yoki his heart sank iboralarining tanlanishi pragmatik jihatdan eng toʻgʻri natijani bergan. Xuddi shu kabi "koʻziga issiq koʻrinmoq" iborasi ingliz tiliga to look warm to his eyes deb soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, butunlay tibbiy yoki jismoniy harorat maʼnosini berib qoʻyadi, uning asl maʼnosi esa kimnidir tanishdek yoki yoqimldek his qilishdir va tarjimada uning oʻrniga to look familiar birligining ishlatilishi mantiqni saqlaydi. Olingan barcha natijalarni va qiyosiy tahlillarni yaxlit umumlashtirgan holda aytish mumkinki, badiiy tarjimada milliy ruhni saqlash muammosi shunchaki tillararo muqobillikni qidirish emas, balki madaniyatlararo muloqot muammosidir. Tarjimon oldida doimo ikki yoʻl, yaʼni milliy soʻzlarni tarjima tiliga transliteratsiya qilib olib kirish orqali xorijiy kitobxonni oʻzbek madaniyati ichiga tortadigan eksotizatsiya strategiyasi hamda oʻzbekona tushunchalarni xorijiy xalq madaniyatidagi oʻxshash narsalarga almashtirib matnni oson oʻqiladigan qiladigan adaptatsiya strategiyasi turadi. Maqolamizda oʻtkazilgan tahlillar shuni isbotlaydiki, haqiqiy badiiy tarjimada original matn muallifining uslubiga va u mansub boʻlgan millat ruhini saqlash uchun eksotizatsiya va transliteratsiya yoʻli ustuvor boʻlishi, adaptatsiyaga esa faqat mantiq butunlay yopilib qolgan oʻrinlardagina, yaʼni iboralar va oʻzbek xalq maqollarida funksional muqobil sifatida murojaat qilinishi lozim. Bu esa milliy adabiyotimiz jozibasini va asrlar davomida shakllangan ruhiyatini jahon miqyosida aslidagidek namoyon etishning eng maqbul mezoni hisoblanadi.

Muhokama. O‘zbek badiiy nasri namunalarning xorijiy tillarga tarjima qilinishi muammosini tadqiq etish natijasida erishilgan ilmiy xulosalarni yetarlicha keltirish mumkin. Birinchidan, badiiy tarjima shunchaki tillararo lisoniy konversiya yoki so‘zlarni oddiygina almashtirish jarayoni emas, balki ikki xil xalq madaniyatini, dunyoqarashini o‘zaro bog‘lovchi global ma‘naviy muloqot vositasidir. Shuning uchun ham badiiy matn tarkibidagi milliy o‘ziga xoslikni va milliy ruhni saqlab qolish muammosi bugungi kunda jahon va o‘zbek tarjimashunosligining eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. G‘aybulla Salomov, Qudrat Musayev, Najmiddin Komilov kabi atoqli o‘zbek olimlarining ilmiy merosi shuni isbotlaydiki, tarjimon zimmasiga nafaqat til bilish, balki ikki xalqning maishiy turmush tarzi, etnografiyasi va ruhiyatini mukammal anglashdek ulkan ijtimoiy-madaniy mas‘uliyat yuklanadi. Ikkinchidan, o‘tkazilgan qiyosiy tahlillar va to‘plangan materiallar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matndagi milliy koloritni xorijiy tillarda qayta tiklashda qo‘llaniladigan lisoniy usullar ichida transliteratsiya (so‘zning asl fonetik shaklini saqlash) eng yuqori samaradorlikka ega. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek kabi o‘zbek adabiyoti durdonalaridagi "ko‘rpacha", "sandali", "chopon", "belbog‘", "tandir" kabi moddiy madaniyat realiyalarini xorijiy tillarga o‘girishda ularni begona madaniyat unsurlariga majburlab moslashtirish asarning tarixiy iqlimini va etnik jozibasini butunlay yo‘qqa chiqaradi. Sandal so‘zini kamin yoki pechka, ko‘rpacha so‘zini oddiy matras deb o‘g‘irish g‘arb kitobxonini ongida noto‘g‘ri tasavvurni shakllantiradi. Shu sababli, milliy ruhni sof holatda saqlash uchun realiyani transliteratsiya qilish va asar oxirida maxsus ilmiy izohli lug‘at tizimini ilova qilish eng maqbul usul hisoblanadi. Uchinchidan, frazeologizmlar, xalq maqollari va iboralar kabi ma‘naviy-psixologik birliklarni tarjima qilishda so‘zma-so‘z usulidan mutloq voz kechish lozimligi aniqlandi. "Burni ko‘tarilmoq", "yuragi chiqmoq", "ko‘ziga issiq ko‘rinmoq" kabi iboralar tarjima qilinganda mantiqiy chalkashliklar va kulgili vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Bunday o‘rinlarda tarjima tilining o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, muqobillarni topish, ya‘ni o‘quvchining idrok darajasini hisobga olish asosiy omildir.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

1. Badiiy tarjima madaniyatlararo muloqotning muhim vositasi hisoblanadi.
2. Milliy koloritni saqlashda transliteratsiya va izoh berish usuli eng samarali vositalardan biridir.
3. Frazeologik birliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilish maqsadga muvofiq emas; ular funksional muqobillar orqali berilishi lozim.
4. Tarjimon til bilimidan tashqari milliy madaniyat, etnografiya va mentalitetni ham chuqur bilishi zarur.
5. Tarjimada aniqlik va badiiy erkinlik o‘rtasidagi muvozanat milliy ruhni saqlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Yakuniy xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, zamonaviy tarjimashunoslik talablaridan kelib chiqib, yosh tarjimonlar va mutaxassislar badiiy matn ustida ishlashda faqat lug‘aviy

ma'nolar bilan cheklanmasdan, matn tilshunosligi metodlariga tayanishlari zarur. Milliy adabiyotimiz namoyandalarining ichki dardi, sharqona jozibasi va ohangini jahon kitobxonlariga yetkazish uchun tarjimada aniqlik va badiiy erkinlik o'rtasidagi oltin o'rtalikni topish, o'zbekona ruhga sodiq qolish kelajakdagi tadqiqotlar va amaliy tarjimalar uchun asosiy strategiya bo'lib xizmat qilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983;
2. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966;
3. Salomov G'. Tarjimon mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
4. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Yo'ldoshev I. Badiiy tarjima va milliy kolorit muammolari // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2018. – № 4. – B. 12-15.
6. Komilov N. Bu qadimiy san'at: Tarjima nazariyasiga oid maqolalar va etyudlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
7. Бархударов Л. С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – Москва: Международные отношения, 1975; см.
8. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990.
9. Sharafiddinov O. Tarjimon mas'uliyati va estetik mezonlar // Ijodiy safar: Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: O'zbekiston, 1975. – B. 84-96.
10. Normatov U. Qodiriy bog'i: Romanlar tili va uslubi xususida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi ijodiy uyi, 2004.
11. Hamidov X. O'zbek xalq maqollari va frazeologizmlarini ingliz tiliga tarjima qilishning lingvokulturologik asoslari: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019.
12. Yo'ldoshev Q., Ahmedov S. Badiiy adabiyot darslarida milliy qadriyatlarni singdirish va matn tahlili metodikasi // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2022. – № 2. – B. 45-51.